



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



XORIJY KREDITLAR ORQALI KAPITAL JALB QILISH AMALIYOTI TAHLILI

Sadullayeva Mohinur G'ayratjon qizi

Bank-moliya akademiyasi tayanch doktoranti

Yozishmalar uchun electron pochta: mohinursadullaeva2@gmail.com

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqt: 13.03.2024

Qabul qilingan vaqt: 27.03.2024

Tayanch so'z va iboralar: xalqaro moliya bozori, xorijy kreditlar, xalqaro kredit munosabatlari, LIBOR foiz stavkasi.

Annotatsiya

Ushbu maqolada xalqaro moliya bozoridan kapital jalg qilishda xorijiy kreditlardan foydalanish amaliyotining mohiyati va o'ziga xos jihatlari, xorijiy kapitalni jalg qilish shakllari, qarz olishdagi majburiy talablar, xalqaro kredit munosabatlari tashkil qilishdagi mavjud tamoyillar, xorijiy kreditlarning afzalliklari va kamchiliklari, kreditlarni berishda qo'llaniladigan foiz stavkalari va berish jarayonlari, mamlakatimizga jalg qilingan xorijiy kreditlar bilan bog'liq holatlar o'rganilgan va tahlil etilgan. O'zbekistonning xalqaro moliya bozoridagi ishtirokini yanada rivojlantirish va chetdan kapital jalg qilish, undan foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar va takliflar berilgan.

ANALYSIS OF THE PRACTICE OF ATTRACTING CAPITAL THROUGH FOREIGN LOANS

Sadullaeva Mohinur

Basic doctoral student of the academy of banking and finance

Corresponding author: email: mohinursadullaeva2@gmail.com

ARTICLE INFO

Received: 13.03.2024

Accepted: 27.03.2024

Abstract

In this article, the essence and peculiarities of the practice of using foreign loans to attract capital from the international financial market, the forms of attracting foreign capital, the mandatory requirements for borrowing, the existing principles of organizing international credit relations, the advantages and disadvantages of foreign loans, the interest rates and procedures for granting loans, the circumstances related to foreign loans attracted to our country are studied and analyzed. Scientific conclusions and proposals on further development of Uzbekistan's participation in the international financial market and attraction and use of foreign capital were presented.

Kirish

Jahon iqtisodiyotidagi keskin raqobat va moliyaviy-iqtisodiy globallashuv sharoitida moliyaviy resurslarga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Hozirda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlantirish yirik hajmda moliyaviy resurslarga talabni oshiradi. Bugungi kunda kompaniyalar loyihami amalgal-

oshirish uchun xorijiy banklardan uzoq muddatli kreditlar jalg qiladi. Xorijiy kreditlarning keng tarqalishi zarur miqdordagi moliyaviy resurslarni nisbatan past foiz stavkalarida jalg qilish imkoniyati bilan izohlanadi. Bu xalqaro moliya bozoridan kapital jalg qilish orqali kompaniyalar moliyaviy resurslarga ehtiyojlarini qondirish imkoniyati mavjud ekanligini ko'rsatadi. Bu korxonalar xalqaro moliya bozorida faol ishtirok etib

xorijiy kreditlarni jalb qilishning dolzarbligini o'zida namoyon etadi.

2020 yil 12-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni orqali 2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasida bank tizimida hozirgi kunda saqlanib qolayotgan muammo va dolzarb masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Bularga:

- o bank tizimida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki;

- o kreditlashning yuqori sur'atlarda o'sib borayotganligi;

- o imtioyozli kreditlar ulushining yuqori darajada saqlanib qolayotganligi;

- o yuqori darajadagi dollarlashuv, shuningdek kredit va depozitlarning yirik korxonalar va iqtisodiyotning alohida sohalarida jamlanganligi;

- o moliyaviy ommaboplak darajasining pastligi.

Strategiya doirasida amalga oshiriladigan islohotlar natijasida quyidagi ko'rsatkichlarga erishish ko'zda tutilgan:

- davlat ulushi bo'limgan banklar aktivlarining bank tizimi jami aktivlaridagi ulushini joriy 16 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 60 foizgacha oshirish,

- banklarning xususiy sektor oldidagi majburiyatlarining umumiy majburiyatlardagi ulushini joriy 28 foizdan 2025 yil yakuniga 70 foizgacha oshirish,

- umumiy kreditlash hajmida nobank kredit tashkilotlarining ulushini joriy 0,35 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 4 foizgacha oshirish,

- banklar depozitlarining majburiyatlariga nisbatini joriy 41 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 50 foizga oshirish,

- banklarning xorijiy valyutadagi majburiyatlarining jami majburiyatlardagi ulushini joriyi 58 foizdan 2025 yil yakuniga qadar 40 foizgacha kamaytirish rejalashtirilgan.¹

Adabiyotlar sharhi

Milliy va xalqaro moliya bozoridan xorijiy kreditlarni jalb qilish jarayonlarini takomillashtirish doirasida bir qancha iqtisodchi olimlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatlarini o'z ilmiy ishlarida o'rganganlar.

Thanh Cong Nguyen, Thuy Tien Ho kredit qoidalarini, xususan, xususiy sektorga kredit berish va foiz stavkalarini nazorat qilishni liberallashtirish bank kreditlari narxini pasaytiradi deb fikr bildirganlar. Bank mulki kredit narxlarining muhim omili sifatida o'zini namoyon qilmaydi. Kredit bozorini tartibga solishni liberallashtirish likvidlik taqchillagini, iqtisodiy noaniqlikni, shuningdek, iqtisodiy riskni kamaytiradi, bu esa banklarga kreditlar bo'yicha pastroq to'lov olish imkonini beradi, chunki ular pastroq risklarga duch keladilar.

J.Ataniyazov, E.Alimardonovlarning fikricha, xalqaro

¹ 2020 yil 12 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni https://cbu.uz/oz/press_center/news/269986/?phrase_id=194463

kreditni yuzaga kelishiga sabab bo'lib, ishlab chiqarishning milliy doiradan chiqishi, xo'jalik aloqalari baynalminallasshuv jarayonining tezlashishi, xalqaro kapitallarning markazlashuvi hamda ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holatda Bekmurodov A.Sh, Abdullayev Z.A, Badalov B.M lar xalqaro kreditning qanday valyutada berilishi muhim hisoblanib, valyutaning nobarqarorligi kreditor uchun yo'qotishlarga olib keladi. Kredit beriladigan valyutani tanlashga bir qator, barqarorlik, foiz stavkasi darajasi, xalqaro hisob-kitoblar amaliyoti, inflyatsiya darajasi, valyuta kurslari va boshqa omillar ta'sir etishini ta'kidlagan.

Steven Ongena, Ibolya Schindele, Dzsamila Vonnak pul-kredit siyosatining bank kreditlari xorijiy valyutalarda denominatsiya qilinganda bank kreditini taqdim etishga ta'sirini o'rganganlar. Xorijiy valyutada bank kreditini yetkazib berish ichki valyutadagi ekvivalent taklifa qaraganda ichki pul sharoitlarining o'zgarishiga nisbatan kamroq sezgir. Xorijiy pul sharoitlarining o'zgarishi ham xuddi shunday milliy valyutadagi bank kreditlariga qaraganda, xorijiy kreditlarga ko'proq ta'sir qiladi. Banklar bir nechta valyutalarda kredit berganda, ichki bank kreditlash liniyalari zaiflashadi va xalqaro bank kreditlash liniyalari ishga tushadi².

Tadqiqot metodologiyasi

Mamlakatimizga xorijiy kredit mablag'larini jalb qilish, ulardan sohalarga bo'yicha taqsimplanishi tahlili statistik, iqtisodiy tahlil va boshqa bir qancha tadqiqot usullaridan foydalangan holda o'rganildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Xorijiy kapitalni jalb qilish shakllari xilma-xillikka ega. Bugungi kun amaliyotida keng miqyosda qo'llanilayotgan shakllar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

- xorijiy bank kreditlarini jalb qilish;
- qarz munosabatini anglatuvchi qimmatli qog'ozlarni xorida joylashtirish;
- aksiyalarni xalqaro fond birjalarida joylashtirish va boshqa shakllardan foydalanishi mumkin.

Banklar hududiy joylashuvidan qat'iy nazar, qarz olish uchun quyidagi majburiy talablar amal qiladi:

- moliyalashtiriladigan loyihaning asoslangan biznes-rejasi mavjudligi;
- xalqaro standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlar taqdim etish;
- dunyoga mashhur, masalan "katta to'rttalik"ka kiradigan auditorlik tashkilotlari xulosalari;
- yuqori darajadagi rentabellik va qat'iy belgilangan moliyaviy ko'rsatkichlaming ta'minlanganligi;
- korxona moliyaviy-xo'jalik faoliyati va tashkiliy tuzilishining shaffofligi va boshqalar.

² Steven Ongena , Ibolya Schindele , Dzsamila Vonnak In lands of foreign currency credit, bank lending channels run through Journal of International Economics Volume 129, March 2021, 103435 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S00229962100012X>

Xalqaro kredit munosabatlarini tashkil qilish quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Qaytarib berishlilik: agar olingan mablag'lar qaytarilmasa, pul kapitalini qaytarib bermaslik shakli namoyon bo'ladi, ya'ni moliyalashtirish yuzaga keladi;
2. Muddatlilik, ya'ni kredit shartnomasida ko'rsatilgan muddatda kreditni qaytarilishini ta'minlash;
3. Ta'minlanganlik, ya'ni olingan kreditni to'lashni kafolatlanganligi;
4. Maqsadlilik, ya'ni ssudani aniq ob'ektlarga yo'naltirishni ko'zlash va uni birinchi navbatda kreditor davlatning eksportini rag'batlantirish uchun qo'llash;
5. Foiz to'lashlilik.

Xalqaro kreditni ko'rinishi bo'yicha 2 ta asosiy shaklga

bo'lib ko'rsatish mumkin:

- a. Xalqaro bank krediti;
- b. Xalqaro tijorat krediti.

Xalqaro bank krediti asosan valyuta (pul) ko'rinishida bo'lib, importyorlar tomonidan avans to'lovlar shaklida ham taqdim etilishi mumkin. Ayrim holatlarda valyuta krediti jihozlar yetkazib berish bo'yicha tijorat bitimining shartlaridan biri hisoblanadi. Xalqaro tijorat krediti esa, odatda tovar ko'rinishiga ega bo'lib, asosan eksportyordan importyordan taqdim etiladi.

Bizga ma'lumki, har jarayonning afzallik va kamchilik jihatlari bo'lgani kabi quyida xorijiy kreditlarning afzalliklari va kamchiliklari to'g'risida to'xtalib o'tamiz.

1-jadval

XORIJIY KREDITLARNING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI³

Xorijiy kreditlarning afzalliklari	Xorijiy kreditlarning kamchiliklari
foiz stavkalarining ancha pastligi va kreditdan foydalanish muddatining uzoqligi (3 yildan 10 yilgacha)	ko'p sonli talablar va kelishuvlarning amal qilishi
garov sifatida debtorlik qarzları yoki eksport shartnomalari bo'yicha tushumlardan foydalanish imkoniyatining mavjudligi	valyuta riskining yuzaga kelishi, ta'minot taqdim etish zarurligi va qarzni boshqarishning qulay mexanizmi mavjud emasligi
xorijdan mablag' jalb qilishning boshqa shakllariga nisbatan taqqoslaganda rasmiylashtirish qiyomatining yuqori emasligi va boshqalar	xalqaro yuridik me'yorlarga asoslanuvchi huquqiy tartiblarga asoslanishi va boshqalar

Ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Quyida xorijiy kreditlarni foiz stavkalarini to'g'risida to'xtalib o'tamiz. Xorijiy kreditlarning keng tarqalishi zarur miqdordagi moliyaviy resurslarni nisbatan past foiz stavkalarida jalb qilish imkoniyati bilan izohlanadi. Xorijiy banklar tomonidan odatda, suzib yuruvchi foiz stavkalarini qo'llaniladi. Bunda asos sifatida ba'zi indikativ har kunlik o'zgaruvchan stavkalar, masalan LIBOR (London Interbank offered rate - London banklararo o'rtacha foiz stavkasi), PIBOR (Paris Interbank offered rate - Parij banklararo o'rtacha foiz stavkasi), AQSh bazis stavkasi (prime rate) va boshqalar olinib, ularga individual mukofot summalarini qo'shiladi. Bankning individual mukofot miqdori 0,5 foizdan 5 foizgacha amal qiladi.

Xalqaro kredit bozorida LIBOR va Yevropa bozorlarida ko'pincha EURIBOR foiz stavkalarini qo'llaniladi.

LIBOR-bu turli valyuta va turli muddatlarda (1 kundan 12 oygacha) mablag'lar taklifi bilan London banklararo bozorida ishtirok etuvchi banklar taqdim etadigan banklararo kreditlar bo'yicha o'rtacha tortilgan foiz stavkalaridir.

LIBOR foiz stavkasi quyidagi instrumentlar uchun bazaviy stavka sifatida keng qo'llaniladi :

- forward stavkalarini bo'yicha kelishuvlar;
- qisqa muddatli foiz stavkasi bo'yicha fyuchers shartnomalari;

- foizli svoplar;
- svop inflyatsiya;
- suzib yuruvchi foiz stavkali notalar;
- sindikatlashgan kreditlar;
- o'zgaruvchan foizli ipoteka kreditlari;
- valyutalar, ayniqsa AQSh dollarini (shuningdek, euro dollar).

So'nggi yillar davomida mamlakatimiz xalqaro kreditlarni jalb qilish va undan samarali foydalanish borasida ancha ijobiy natijalarga erishib kelmoqda. Jumladan o'tgan 2023-yilda Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi ma'lumotlariga qaraganda, O'zbekiston \$2,8 mlrdlik xalqaro kreditlarni o'zlashtirgan.

Xususan, mamlakatimizga Osiyo taraqqiyot banki (OTB) \$615,6 mln, Juhon banki \$552,4 mln, Xitoy \$398,8 mln mablag'lar ajratgan.

Xalqaro donorlar tomonidan berilgan kreditlarning katta qismi turli xil ahamiyati yuqori va zarur mablag'ga ehtiyoji yuqori bo'lgan tarmoq va sohalarga ajratildi. Jumladan, O'zbekiston energetika tarmog'iga — \$871,8 mln, transport infratuzilmasi — \$473,3 mln, qishloq va suv xo'jaligi — \$299,7 mln mablag'lar yo'naltirilgan.Undan tashqari, iqtisodiy sektorga — \$242,8 mln va sog'liqni saqlashga — \$163,1 mln mablag'lar yo'naltirilgan.⁴

³ S.Elmirzayev, B.Toshmurodova, D.Abdikarimova, N.Sherqo'ziyeva, B.Boyev, N.Shavkatov X22 Xalqaro moliya

bozori: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar. — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. - 31-bet

⁴ <https://kapital.uz/uz/xalqaro-kreditlar/>

2-jadval

XORIJY KREDIT LINIYALARI HISOBIDAN AJRATILGAN KREDITLAR (banklar kesimida)⁵

01.04.2023 yil holatiga

mln. doll

№	Bank nomi	JAMI	shu jumladan,						mln. doll
			Sanoat	Aloqa	Qishloq va o'rmon xo'jaligi	Qurilish	Savdo va umumiy ovqatlanish	Transport	
	JAMI:	529,8	325,3	0,0	31,7	38,7	77,0	25,1	32,1
1	O'zmilliybank	115,7	62,3	0,0	0,4	33,5	0,1	0,2	19,3
3	Asaka bank	30,4	28,3	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	2,1
4	O'zsanoatqurilishbank	185,2	156,9	0,0	2,0	0,0	21,7	0,6	3,9
5	Ipoteka bank	3,3	3,3	0,00	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
6	Agrobank	31,0	30,8	0,0	0,0	0,0	0,1	0,0	0,0
7	Xalq banki	5,5	0,0	0,0	5,5	0,0	0,0	0,0	0,0
8	Qishloqqurilishbank	8,2	4,4	0,0	3,9	0,0	0,0	0,0	0,0
9	Mikrokreditbank Turon bank	2,4	0,0	0,0	2,4	0,0	0,0	0,0	0,0
9	Aloqa bank	5,5	4,9	0,0	0,6	0,0	0,0	0,0	0,0
10	Turon bank	15,7	0,2	0,0	15,5	0,0	0,0	0,0	0,0
11	Hamkor bank bank	103,9	24,6	0,0	1,4	4,7	46,6	22,9	3,8
12	Ipak Yo'li bank	12,5	1,9	0,0	0,1	0,3	6,1	1,39	2,7
13	Davr bank	1,0	0,1	0,0	0,0	0,0	0,7	0,1	0,1
13	Aziya Alyans bank	2,7	2,7	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
14	Infin bank	6,9	5,0	0,0	0,0	0,2	1,6	0,0	0,1

2023-yil 1-aprel holatida mamlakatimizga jalg qilingan 529,8 mln. dollar xorijiy kredit liniyalaridan jalg qilingan mablag'lar hisobidan bir necha banklar sanoat, aloqa, qishloq va o'rmon xo'jaligi, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish, transport, xizmat ko'rsatish sohalariaga kreditlar ajratishga muvaffaq bo'lganlar. Jumladan, eng ko'p hajmda O'zsanoatqurilishbank-185,2 mln.dollar, O'zmilliybank-115,7 mln.dollar, Hamkor bank-103,9 mln.dollar, Agrobank-31,0 mln.dollar, Asaka bank-30,4 mln.dollar xorijiy kredit liniyalaridan mablag' jalg etib ularni turli xil sohalarni rivojlantirishga kreditlar ajratilgan.

Xulosa va takliflar

Xalqaro kreditdan mamlakat iqtisodiyotida keng foydalanish qator ustunlik jihatlari mavjud.

Birinchidan, xalqaro kredit milliy takror ishlab chiqarish jarayonlarini kengaytiradi va tezlashtiradi, mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini, birinchi navbatda tashqi savdo, kapitalning xalqaro harakatini, xalqaro xizmatlarni (qurilish, ta'lim, fan, sug'urta va boshqalar) rag'batlantiradi;

Ikkinchidan, kreditor-mamlakat kompaniyalari raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida xizmat qiladi, xalqaro moliya bozorining valyuta segmentidagi valyuta va hisob-kitob operatsiyalarini uzlusizligini ta'minlaydi, mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyatini

barcha yo'nalishlarini iqtisodiy samaradorligini oshiradi; Uchinchidan, iqtisodiyotdagи nomutanosiblikni kuchaytirib, tashqi moliyalashtirish uchun jozibador bo'lмаган sohalarni rivojlanishini orqaga tortishi;

To'rtinchidan, ta'minot va kapital bozori uchun davlatlar o'rtaisdagi kurashni keskinlashtiradi, tashqi qarz inqirozini keltirib chiqarishi mumkin.

Beshinchidan, yetakchi davlatlar tomonidan ma'lum mamlakatlarga nisbatan kredit diskriminatsiyasi va kredit blokadalarini siyosatini qo'llashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 2020-yil 12-maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli "2020-2025 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni https://cbu.uz/oz/press_center/news/269986/?sphere_id=194463
- Thanh Cong Nguyen, Thuy Tien Ho Credit market regulations and bank loan pricing Author links open overlay panel Economic Modelling Volume 133, April 2024, 106673 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S0264999324000294>
- J.Ataniyazov, E.Alimardonov, F.Hamidova. Xalqaro moliya bozori tahlili, o'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2019. 5- bet.

⁵ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari 1.04.2023

4. Bekmurodov A.SH., Abdullayev Z.A., Badalov B.M. Xalqaro moliya bozori va institatlari. O'quv qo'llanma. -T.: «Iqtisodiyot», 2019. – 124- b.
5. Steven Ongena , Ibolya Schindele , Dzsamila Vonnak In lands of foreign currency credit, bank lending channels run through Journal of International Economics Volume 129,March 2021,103435 <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S002219962100012X>
6. S.Elmirzayev, B.Toshmurodova, D.Abdikarimova, N.Sherqo'ziyeva, B.Boyev, N.Shavkatov X22 Xalqaro moliya bozori: Darslik / S.Elmirzayev va boshqalar. — T.: "Iqtisod-Moliya", 2019. – 29-b.
7. J.Ataniyazov, E.Alimardonov, F.Hamidova. Xalqaro moliya bozori tahlili, o'quv qo'llanma. – T.: TMI, 2019. 69- bet.
8. <https://kapital.uz/uz/xalqaro-kreditlar/>
9. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari 1.04.2023